



USMON ZUNNURAYNNING O'LDIRILISHI FITNASI SABABLARI

*Farg'ona davlat texnika universiteti Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasasi asistenti
Raxmatov Abbosbek Tolipjon o'g'li*

Muhammad ibn Shihob Zuhriy aytadi: Usmon ibn Affon 12 yil mo'minlarga amir bo'ldi, bundan dastlabki olti yili odamlar undan hech ranjima-dilar, hatto u Qurayshga Umar ibn Xattobdan ko'ra suyuqliroq bo'ldi. Chunki Umar o'ta qattiqqo'l edi, Usmon esa ularga yumshoqlik qildi, ularga ko'p marhamatlar ko'rsatdi, yaxshi qarindoshlik aloqalarida bo'ldi. Shundan so'ng fitna yuz berdi. Musulmon muarrixlar Usmon xalifaligining ikkinchi yarmida, hijriy 30-35 yillarda yuz bergan hodisalarni Usmon roziyallohu anhu-ni shahid qilinishiga olib kelgan fitna deb ataydilar[1].

Musulmonlar Abu Bakr, Umar ibn Xattob xalifaligi davrida va Usmon ibn Affon xalifaligining avvalgi davrida ittifoq edilar, o'rtalarida kelishmovchilik yo'q edi. Keyin Usmon roziyallohu anhu xalifaligining oxirgi yillarida musulmonlar o'rtasida bo'linishlarni keltirib chiqargan ayrim ishlar sodir bo'ldi. Fitna va zulm ahlidan bo'lgan bir toifa odamlar chiqib, Usmonni o'ldirdilar. Musulmonlar Usmon shahid qilinganidan so'ng bo'linib ketdilar[2].

Ushbu fitnaning kelib chiqishi sabablarini o'rganishga kirishar ekanmiz, dastlab jamiyatning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy holati haqida biroz tasavvurga ega bo'lish kerak bo'ladi.

Усман ибн Аффан был повелителем верующих в течение 12 лет. В первые шесть лет люди были им довольны, и он был более любим курайшитами, чем Умар ибн Хаттаб, так как Умар был очень строгим, тогда как Усман проявлял мягкость, оказывал им множество милостей и поддерживал хорошие родственные связи. После этого начались смуты.



Мусульманские историки называют события второй половины правления Усмана, произошедшие в 30–35 годах по хиджре, фитной, которая привела к его мученической смерти.

Мусульмане были едины во времена правления Абу Бакра, Умара ибн Хаттаба и в начале правления Усмана ибн Аффана, между ними не было разногласий. Однако в последние годы правления Усмана р.а. произошли события, которые привели к расколу среди мусульман. Группа людей из числа приверженцев смуты и несправедливости восстала и убила Усмана. После его мученической смерти мусульмане разделились.

Приступая к изучению причин возникновения этой фитны, необходимо сначала получить некоторое представление о социально-политическом положении общества того времени.

Uthman ibn Affan served as the leader of the believers for 12 years. During the first six years, people were pleased with him, and he was even more beloved to the Quraysh than Umar ibn al-Khattab, because Umar was very strict, whereas Uthman showed them gentleness, granted them many favors, and maintained strong family ties. After that, a period of turmoil (fitna) began. Muslim historians refer to the events that occurred in the second half of Uthman's caliphate, during the Hijri years 30–35, as the fitna that led to his martyrdom.

Muslims were united during the caliphates of Abu Bakr, Umar ibn al-Khattab, and the early years of Uthman ibn Affan's rule, and there were no disputes among them. However, in the later years of Uthman's caliphate, certain events occurred that caused divisions among Muslims. A faction of people belonging to the proponents of fitna and oppression rose and killed Uthman. After his martyrdom, the Muslims became divided.

As we begin to study the causes behind the emergence of this fitna, it is necessary first to gain some understanding of the social and political conditions of that time.



Islom jamiyati Siddiq va Foruq xalifaligi davrida va Usmon Zunnurayn xalifaligining birinchi yarmida quyidagi ko'rinishlarga ega edi:

Bu jamiyat umuman olganda islomning barcha ma'nolarini o'zida mujassam etgan islomiy jamiyat bo'lib, Allohga va oxirat kuniga chuqur iymonli, islomni jiddiylik bilan tatbiq etuvchi, tarixdagi har qanday jamiyatga qaraganda gunohga eng kam qo'l uradigan jamiyat edi.

U o'zida rabboniy ummatning haqiqiy ma'nosini eng oliy darajada ro'yobga chiqargan jamiyat edi. Bu jamiyat a'zolari o'rtasini tillari, jinslari, terilarining rangidan qat'i nazar faqat aqida bog'lovchisi bog'lab turardi, bu esa tarix mobaynida boshqa biron xalqda islom ummatida bo'lganidek ro'yobga chiqmagan.

U dindagi buyruq-qaytariqlar va yo'l-yo'riqlardan madad oluvchi yorqin axloqiy qoidalar asosiga qurilgan axloqiy jamiyat edi.

U har xil safsatalardan xoli, faqat oliy maqsadlarni amalga oshirish bilan mashg'ul bo'lgan jiddiy jamiyat edi. Jiddiylik deganda albatta qovoq uyish, dag'al va keskin gapirish kabi ma'nolarni emas, balki odamlar ichida himmatni yoyadigan, g'ayratga, faoliyatga va harakatga bois bo'ladigan bir ruh ma'nosi ko'zda tutilmoqda.

U barcha jabhalarda kishini amalga safarbar etuvchi jamiyat edi. Unda nafaqat Alloh yo'lidagi urushda, balki faoliyatning jamiki yo'nalishlarida askarlik ruhi ochiq sezilib turardi, unda odamlar ich-ichlaridan aqida turtkisi bilan va g'ayrat-shijoatga undovchi ichki chaqiriq ta'sirida harakatlanardilar.

U toat-ibodatli jamiyat bo'lib, unda nafaqat farzlarni ado etishda va Alloh roziligini istab nafl ibodatlar qilishda, balki hayotning barcha ishlarida ibodat ruhi ochiq sezilib turardi. Bu jamiyat tushunchasida har qanday amal ibodat bo'lib, uni ibodat ruhi bilan ado etardilar [3].

Ushbular umuman olganda islomiy jamiyatning xulafoi roshidin davridagi eng muhim ko'rinishlaridan edi. Jamiyatning bu belgilari nubuvvat zamoniga





qancha yaqin bo'lsa shuncha kuchli bo'lib, nubuvvat asridan uzoqlashgani sari zaiflashib borganiga guvoh bo'lasiz.

Darhaqiqat, roshid xalifalik zamonida Usmon roziyallohu anhuri o'ldirilishi fitnasidan so'ng jiddiy o'zgarishlar boshlandi. Ummat boshiga kelgan bu og'ir fitna va ulkan imtihonning kelib chiqishining bir necha sabablari borki, quyida ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

a) Farovonlik va uning jamiyat hayotiga ta'siri

Ma'lumki, Usmon ibn Affon roziyallohu anhu davriga kelib odamlarning turmushlari ancha farovonlashgan, hayotlariga to'kin-sochinlik kirib kelgan edi. Islomiy fathlar tufayli davlat xazinasiga oqib kelayotgan kirimlarning jamiyat hayotiga salmoqli ta'siri bor edi. Chunki daromad ortishi to'kin-sochin hayotni va oxir-oqibat odamlarning dunyoga berilib qolishlarini keltirib chiqarardi va tabiiyki, buning ortidan ayniqsa hali iymon qalblarini sayqallab ulgurmagan va dillari taqvo bilan poklanmagan badaviy kimsalarda va fathlarda musulmonlikni qabul qilgan har xil millat va elat vakillari ichida o'zaro raqobat va kinadovatlarni keltirib chiqarardi. Usmon roziyallohu anhu bu narsani ilgaridan yaxshi anglagandi va o'zining raiyatga yo'llagan maktubida uning ummatni bo'linib ketishga olib keladigan yomon oqibatlaridan ogohlantirgandi: "Qachon sizlarda uch ish jamlansa, bu ummatning ishida birlik va bahamjihatlik yo'qoladi: to'kin-sochin hayot, asira (cho'ri)lardan bo'lgan farzandlaringiz ulg'ayishi, a'robiylar va ajamlar Qur'on (ma'nolarini yaxshi anglamay) o'qishi"[4]. Darhaqiqat Usmon ibn Affon roziyallohu anhu qo'rqqan narsa yuz berdi va islomiy davlatning uzoq chekkalarida uning asari ko'rina boshladi. Keyin u poytaxtga ham kirib kela boshladiki, bundan Usmon musulmonlarga nasihat qilish va ularni dunyoga berilish oqibatidan ogohlantirish zaruratini tuydi. Xutbalaridan birida u shunday dedi: "Alloh sizlarga bu dunyoni u bilan oxiratni istashlaringiz uchun berdi, unga suyanib qolishlaringiz uchun bermadi. Dunyo yo'q bo'lib ketadi, oxirat esa boqiy. Shunday ekan, foni narsa sizlarni haddan oshirmasin va boqiydan mashg'ul qilib qo'ymasini..."[5]. So'ng bu oyani o'qidi:



“Barchangiz Allohning arqoniga bogʻlaningiz va boʻlinmangiz! Hamda Allohning sizlarga bergan neʼmatini eslang: bir-biringizga dushman boʻlgan paytlaringizda dillaringizni oshno qilib qoʻydi-yu, sizlar Uning neʼmati sabab birodarlarga aylandingiz. Va doʻzax chohining yoqasida turgan edingiz, sizlarni undan xalos qildi. Haq yoʻlni topishingiz uchun Alloh sizlarga oʻz oyatlarini mana shunday bayon qiladi. Oralaringizdan yaxshilikka (islomga) daʼvat qiladigan, toat-ibodatga buyuradigan va gunohdan qaytaradigan bir jamoat boʻlsin. Ana oʻshalar najot topuvchilardir” [Oli Imron: 103-104].

Davomi bor

[1] Ibn Saʼd, “Tabaqot” (1/39-47).

[2] “Majmuʼul fatovo” (13/20).

[3] “Kayfa naktubu at-tarixal islomiy” (102-bet).

[4] “Tarixi Tabariy” (5/245).

[5] “Ahdos va ahodiysul harj” (567-bet).

b) Jamiyatdagi oʻzgarishlar va yangi avlod kelishi

Jamiyatda talaygina oʻzgarishlar yuz berdi, yangi bir avlod yetishib chiqdi, ular sahobalardan boshqa, sahobalar yashagan davrni yashab oʻtmagan va ular ega boʻlgan sifatlarga ega boʻlmagan avlod edi. Musulmonlarning ilk avlodi iymon quvvati bilan, islom aqidasi negizini toʻla va chuqur anglashi bilan, nafsni Qurʼon va Sunnatda mujassam boʻlgan islom nizomiga boʻysundirishga toʻla hozir ekani bilan ajralib turardi. Aksariyati fathlarda islomni qabul qilgan keyingi avlod davriga kelib, bu xususiyatlar kamroq zohir boʻla boshladi, ularda shaxsiy manfaatlarga intilish, qavm-qabilalarga taassub qilish koʻrinishlari zohir boʻldi. Baʼzilar johiliyat qoldiqlaridan toʻla qutulib ketmagandi, ularga sahobalar roziyallohu anhum Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qoʻllarida olgan islomiy tarbiya yetishmasdi. Sahobalar oʻzlaridan keyingi avloddan koʻra kamroq

fitnalarga duchor bo'lgandilar. Nubuvvat asri yiroqlashgani sari firqalanish va ixtiloflar kuchayib borardi.

v) Umardan so'ng Usmonning kelishi (roziyallohu anhum)

Usmon ibn Affon roziyallohu anhumning Umar ibn Xattob roziyallohu anhudan keyin xalifalikka kelishi va ikkovlarining tabiatlari har xilligi ham xalqlarga muomalada uslublari farqli bo'lishiga olib keldi. Umar o'ta qattiqqo'l, o'zini ham, qo'l ostidagilarni ham ayamasligi bilan tanilgan edi. Usmon esa yumshoqtabiat va muloyim odam edi, o'zini ham, odamlarni ham Umar ushlaganidek qattiq ushlamas edi. U o'z-o'ziga: "Alloh Umarni rahmat qilsin, Umarning kuchi yetgan narsaga kimning ham kuchi yetardi?!", deb qo'yardi.[1]

g) Katta sahobalarning Madinadan ketishlari

Umar roziyallohu anhu katta sahobalar bo'lmish Quraysh muhojirlarini Madinadan boshqa o'lkalarga ko'chib ketishlariga izn bermas, siyosat va zarurat yuzasidangina ketishlariga izn berar edi. Sababi, Umar roziyallohu anhu kibor sahobalarning fath qilingan diyorlarda tarqalib ketishlaridan va atroflariga odamlar yig'ilib, har kim o'zi ergashgan sahobaning fikriga taassub qilishlaridan va ixtiloflar yoyilishidan xavfsirardi. Usmon esa ularga bermalol chiqib, istagan yerlariga ketishlariga izn berdi.

d) Johiliy taassub

Islom davlati jangu jadallarda g'alaba qozonib, fathlar ketidan fathlarda muzaffar qadam tashlab ilgarilab borarkan, arablar mamlakatlarga ega bo'lgach, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahobalaridan bo'lmagan yosh avlodlar yoki dinga yangi kirgan kishilar o'zlarining bu yurishlardagi ishtiroklaridan va g'alabalaridan g'ururlanib, asosan muhojir va ansorlarning va Hijoz ahlining rahbarlik va raislik o'rinlarida turishlariga g'ayirliklari kelib, o'zlarining ham bunga munosibliklari haqida gap-so'zlar chiqara boshladilar. Johiliyat tomiri urib, hijozliklarga va xususan qurayshliklarga nisbatan g'illu g'ashlik hislari bo'y ko'rsata boshladi. Bu esa ko'proq Usmon roziyallohu anhu davrlariga to'g'ri





keldi. Uning o'lkalardagi voliylari haqida turli aybu malomatlarni izhor qila boshladilar, ularga bo'ysunmaslikka va ularni amallaridan bo'shatishga chaqiriqlar yangray boshladi, ularni voliylikka tayinlagan xalifaning o'ziga ham qarshi gap-so'zlar paydo bo'la boshladi. Uning urushlardan kelgan g'animatlarni va vaqf yerlarni o'z xohishiga muvoviq o'zi istagan kishilarga bo'lib berayotgani haqidagi mish-mishlar tarqala boshladi.

ye) Vara`ma`nosini noto`g`ri tushunish

Vara` – parhezkorlik shariatda yaxshi sanalgan xislat bo'lib, gunohdan saqlanish maqsadida gunoh bo'lmagan narsani ham tark qilish, demakdir. Bu ma`nodagi vara` har bir insonning shaxsiy ishi bo'lib, uni boshqalardan ham talab qilish to`g`ri bo'lmaydi. Eng xatarli vara` mubohni harom yo farz qilib oladigan johilona vara`dir. Fitnachi kimsalar ayni shu narsaga tushdilar. Islom dushmanlari ularning his-tuyg`ularidan foydalanib, shishirib ko`pirtirdilar. Usmon qilgan ba`zi muboh ishlarni islomga qarshi chiqish va o`tganlarning sunnatini o`zgartirish deb baholadilar, johillar ko`zida bu masalalarni shishirib, vahimali qilib ko`rsatdilar. Fitnani oxir-oqibat roshid xalifa Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning qonini halol qilishgacha yetkazdilar. Va musulmonlarga to bugungacha davom etib kelayotgan fitna eshigini ochib berdilar[2].

j) Umidvor yangi avlod zuhuri

Keyingi avlod bo'lmish sahobalarning farzandlari ichidan o'zlarini hukmronlik va boshqaruvga munosib deb ko`radigan, biroq maqsadlariga erishish uchun oldilarida yo`lni yopiq deb bilgan kishilar chiqdi. Odatda o'z tama`lariga yetishishga yo`l topolmayotgan kishilar har qanday tartibsizlik va g`avg`olar keltirib chiqaruvchi harakatlarga qo`shilib ketadilar[3].

z) Ichi qora g`arazgo`y toifaning maydonga kelishi

O`zini musulmon qilib ko`rsatib yurgan munofiqlar ichida g`oyat aqlli va makkor kimsalar bo'lib, ular musulmonlar ichidagi zaif nuqtalarni topib, shu yerdan fitna qo`zg`ay oldilar va o`zlariga quloq soladigan odamlarni topishga



qodir bo'ldilar. Ma'lumki, Islom davlatida yashab turgan yahudlar, nasorolar, forslar va boshqalarning dilida tashqariga chiqishga yo'l topolmay turgan adovat va nafratlari bor edi. Ulardan tashqari, o'zlari qilgan biron jinoyat uchun ta'zir va jazoga yo'liqqan, shu tufayli xalifaga va uning ba'zi viloyatlardagi voliyalariga qarshi nafratli bo'lib qolgan kishilar ham, xususan Basra, Ko'fa, Misr va Madinada ularning yo'rig'iga yura boshladi. Jinoyatchi kimsalar bu fursatdan unumli foydalanishga urindilar. Natijada ko'pchiligi badaviylardan tashkil topgan, dinni yaxshi tushunmaydigan kishilardan iborat bir toifa paydo bo'ldi va ular o'zlariga qarshi bo'lgan barchani yomon odamlar (as'hobi sharr) deb atadilar. Manbalarda Usmonga qarshi fitnaning asosiy nazariyotchisi, odamlarni u zotga gij-gijlagan kishi Abdulloh ibn Saba` San'oniy nomli yahudiy kimsa bo'lgani aytiladi. Asli yahudlardan bo'lgan bu kimsa islomni qabul qilganini e'lon qilgandi. Bu kimsa shaharma shahar kezib, musulmonlar ichida Usmonga qarshi nafrat va adovatni shakllantirishga bosh-qosh bo'ldi.

i) Usmon roziyallohu anhuga qarshi ayblovlarni avj oldirish uchun qurilgan puxta tadbir

Qorishiq sabab va omillar natijasida jamiyat mish-mishlar va gap-so'zlarni qabul qilishga tayyor holatga kelib qoldi. Fitnachilar amri ma'ruf va nahiyy munkar niqobi ostida amirlarga qarshi ayblovlarni rivojlantirdilar va shu yo'l bilan odamlarni o'z saflariga qo'shishga muvaffaq bo'ldilar. Keyin ayblov davlat boshlig'i sifatida to'g'ridan-to'g'ri Usmon ibn Affon roziyallohu anhuga qarshi yo'naltirib yuborildi. Xalifaga qarshi qo'zg'atilgan ayblov va da'volarni ko'zdan kechirsak, ularni asosan besh majmuaga ajratish mumkin:

- Xalifa bo'lishidan ilgari shaxsiy holatlari: ayrim g'azotlarda va muhim voqealarda ishtirok etmagani;
- Davlat boshqaruvida tutgan siyosati: qarindoshlariga mansab berishi va mansabga tayinlashda tutgan yo'li;
- Moliyaviy siyosati: qo'li ochiqligi, qarindoshlariga saxovat ko'rsatgani;



- O`ziga yoki ummat manfaatlariga xos ijtihodlari: Minoda namozni qasr qilmay o`qigani, Qur`onni mus`hafga jamlagani, masjidni kengaytirishi;
- Ba`zi sahobalarga – Ammor, Abu Zar, Ibn Mas`ud roziyallohu anhumga nisbatan muomalasi.

[1] “Tarixi Tabariy” (5/418).

[2] “Ahdos va ahodiys fitnatil harj” (517-bet).

[3] “Al-asosu fis-sunna” (4/1676).

Abdulloh ibn Saba`ning fitnani tashkillashtirishdagi roli

Yuqorida aytib o`tilgan omillar natijasida Usmon roziyallohu anhu xalifaligining so`nggi yillarida islomiy jamiyatda beqarorlik belgilari ko`rina boshladi. Ayrim g`arazli yahudiylar fitna omillaridan foydalanib, o`zlarini musulmon ko`rsatib, fursatni g`animat bildilar. Ulardan biri Ibnus Savdo (qora xotinning o`g`li) laqabli Abdulloh ibn Saba` edi. Ibn Saba`ning bu ulkan fitnani tashkillashtirish va yo`naltirishdagi rolini haddan ortiq bo`rttirib ko`rsatish to`g`ri bo`lmaganidek, uning fitnadagi rolini umuman shubha ostiga olish va ahamiyatsiz deb ko`rish ham to`g`ri bo`lmaydi. Aslida, Ibn Saba` yo`q yerdan fitna chiqarmadi, balki jamiyatda uning fitna boshlashiga yo`l hozirlagan bir muhit vujudga kelgan va unga yordamchi bo`lgan boshqa omillar ham bor edi. Ibn Saba` yahudiylik mafkurasidan kelib chiqib o`zi uydirgan, islomga qarshi cheksiz adovat va nafrat ruhiga yo`g`rilgan fikr va qarashlarini islom jamiyati birligini parchalab tashlash, musulmonlar o`rtasida fitna olovini yoqish va urush-janjallar keltirib chiqarish yo`lida ishlatish uddasidan chiqdi. U o`zining fosiq g`arazlarini aslida to`g`ri bo`lgan muqaddimalar asosiga qurdi. Shu bilan o`ziga ergashganlarni chalg`ita oldi va atrofiga ko`plab sodda kishilarni yig`ishga muvaffaq bo`ldi.

Masalan, u Qur`on oyatlarini o`z buzuvq fikrlari bilan ta`vil qilib, aytardiki: “Iso qaytadi, deb da`vo qiladigan, biroq Muhammadning qaytib kelishini yolg`on sanaydigan kimsalardan ajablanaman. Vaholanki, Alloh: “(Ey Payg`ambar), sizga



Qur'onni (nozil qilgan, unga amal qilishni va odamlarga yetkazishni) farz qilgan Zot sizni albatta o'zingiz chiqib ketgan joyga (ya'ni, Makkaga) qaytaruvchidir", degan [Qasas: 85]. Shunday ekan, Muhammad qaytib kelishga Isodan ko'ra haqliroq"[1].

Shuningdek, u fosid qiyosga asoslangan quyidagi so'zlari bilan Ali roziyallohu anhuga vasiylikni isbot qilish da'vosini qildi: "Mingta payg'ambar bo'lgan, har bir payg'ambarning vasiyi bo'lgan, Ali Muhammadning vasiyidir". So'ng dedi: "Muhammad payg'ambarlarning so'nggisi, Ali esa vasiylarning so'nggisi".

Izdoshlarining ko'ngliga yo'l topganidan so'ng u o'zining avvaldan rejalangan asosiy maqsadiga o'tib, odamlarni xalifa Usmon ibn Affon roziyallohu anhuga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga unday boshladi. Bu narsa ba'zi odamlarning ko'nglidagi g'arazlarga mos tushdi. U ularga: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning vasiyatlarini joriy qilmagan va u zotning vasiyini (ya'ni, Alini) oyoqosti qilib, ummatga rahbarlik ishini o'z qo'lga olgan kimsadan ko'ra kim zolimroq?!", derdi. So'ng ularga: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning vasiyi bor bo'la turib, Usmon xalifalikni nohaq qo'lga kiritdi. Bas, endi bu ishni tuzatinglar, amirlaringizni to'g'ri yo'lga solinglar, amri ma'ruf va nahiy munkar qilinglar, odamlarni bu ishga chorlanglar", dedi[2].

Uning bir shahardagi tarafdorlari boshqa shaharlardagi tarafdorlari bilan shu mavzularda bir-birlariga maktublar yozib yubora boshladilar, hamma shaharlarda g'avg'o va norozilik kayfiyatlari uyg'otishga kuch berib harakat qilishga kirishdilar. Bir shahar yo viloyatdagi fitnachilar boshqa viloyat va shaharlarga o'zlarining amirlarining xalqqa qilayotgan javru zulmlari haqida yolg'on yashiq gaplarni yozib yuborar, bu xatdagi gaplar o'sha shahar xalqi ichida tarqalib, ular falon shaharda shunday nohaqliklar bo'layotgan ekan, biz ofiyatda ekanmiz, deyishar, bular ichidagi fitnachilar esa ayni shu mazmundagi gaplarni yozib boshqa shaharga yuborishar, u shahar ahlida ham boshqa joylarda shunday nohaqliklar bo'layotgani haqidagi gaplar bilan noroziliklar oshib borardi[3].





Ibn Saba` odamlarga ikki buyuk sahoba – Ali va Usmon roziyallohu anhumo o`rtasida adovat borligini uqtirishga, ulardan birini haqqi tortib olingan mazlum, ikkinchisini esa zo`ravon bosqinchi qilib ko`rsatishga zo`r berib urindi.

Keyin Misr, Basra va xususan Ko`fa ahlini amri ma`ruf va nahiyy munkar niqobi ostida amirlariga qarshi ko`tarishga urindi, ular arziyas hodisalar tufayli ham amirlariga qarshi norozilik bildiradigan bo`ldilar.

Keyin xalifa Usmon shaxsiga qarshi har xil bo`hton va ig`volar tarqatildi, uning o`z qarindoshlari yonini olishi, ularga baytulfoldan hisobsiz tuhfa berishi kabi ayblovlar yangray boshladi.

Saba`chilar falon shaharning amiri falon ish qildi, degan mazmundagi bo`hton gaplarni yozib, boshqa shaharlarga yuborishardi. Bu gaplar xalq orasida tarqalib, oxir-oqibat, ko`pchilik odamlarda, davlat boshqaruvidagi ahvol chidab bo`lmas darajaga yetibdi, degan fikr shakllandi.

Usmon roziyallohu anhu shaharlarda qandaydir fitna harakatlari tashkil etilayotgani va ummat fitnachilar domiga o`ralashib qolayotgani haqida xabar topgach, muammolarga yechim topish va fitnaning oldini olish maqsadida nufuzli kishilar bilan yig`ilishlar o`tkazib, ishning tadorigini ko`rish harakatlariga tushdi. Majlislaridan birida u bu haqda gapirib: “Vallohi, fitnaning tegirmon toshi aylanish arafasida, bu tosh harakatga kelmasidan Usmon o`lgani yaxshiydi”, degandi[4].

Fitnaning o`chog`i Ibn Saba` yashab, faoliyat olib borayotgan Misrda bo`lib, u o`sha yerdan Usmon roziyallohu anhuga qarshi fitna harakatlarini tartiblardi, Usmon xalifalikni nohaq egallab olgan, xalifalik aslida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning vasiyi bo`lmish Alining haqqi edi, degan da`vo bilan odamlarni isyon ko`tarib, Madinaga yo`l olishga chaqirardi. Odamlarga katta sahobalardan keldi, degan da`voda fitnaga chorlovchi maktublarni o`qib berardi. Bir guruh haqiqat talab kishilar Madinaga kelib, o`sha nomlari aytilgan sahobalar bilan ko`rishganlarida ulardan bu fitnalarga hech qanday rag`bat ko`rmadilar,





aksincha u zotlar o'z nomlaridan yuborilgani aytilgan maktublardan bexabarliklarini e'lon qildilar[5]. Ular Usmonni haq-huquqlarni o'z o'rniga keltirayotganini ko'rdilar. Usmon roziyallohu anhu ular bilan munozara qilib, unga qo'yayotgan ayblovlariga qoniqarli javoblar berdi, ularning uydirmalariga raddiya berdi va ularga o'zining qilayotgan ishlarini tushuntirib berdi. Insofli kishilar uning so'zlaridan ta'sirlandilar, o'zlarining aldov va fitna domiga tushib qolganlarini angladilar. Ulardan biri Molik ibn Ashtar Naxaiy: "Bu yerda unga ham, sizlarga ham makr qilinganga o'xshaydi", degandi[6].

Mashhur tarixchilar va salafu xalaf ulamolari ittifoq qilganlarki, Ibn Saba` musulmonlarni dinlaridan chalg'itish, imomlariga itoatdan burib yuborish, o'rtalariga ixtilof va tafriqa solish uchun ular ichiga sabaiy aqida, fikr va qarashlarni sizdirdi. Uning atrofiga asosan to'polonchi odamlardan iborat, saba`chilar toifasi deb tanilgan bir toifa yig'ildi. Amirulmo`minin Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning o'ldirilishiga olib kelgan ulkan fitnaning asosiy ishtirokchilari shu toifa ahli edi.

[1] "Tarixi Tabariy" (5/247).

[2] Avvalgi manba (5/348).

[3] Avvalgi manba (5/348).

[4] "Tarixi Tabariy" (5/350).

[5] "Tahqiq mavoqifis sahoba" (1/330).

[6] Avvalgi manba (1/331).

Muoviya ibn Abu Sufyonning fitnaga munosabati

Hijriy 33 yili kunlarning birida Ko'fa voliysi Said ibn Os bir majlisda ko'pchilik ichida o'tirgandi, atrofida odamlar gaplashib, bahs-munozara qilib o'tirishgandi. Shu orada majlisga xavorijlardan bir necha kishi suqulib kirib, uni buzishga va o'tirganlar ichida fitna olovi yoqishga urinishdi. Majlisda Said ibn Os bilan Xunays ibn Hubaysh Asadiy ismli bir kishi o'rtasida gap qochib, ikkisi bir





masalada tortishib qoldilar. Shu yerda fitnakorlardan yetti kishi ham o'tirgan bo'lib, ular ichida Jundab Azdiy, Ashtar Naxaiy, Ibn Kavvo, Sa'sa'a ibn Sahvon bor edi. Shunda fitnachilar janjal chiqarish uchun fursatni g'animat bilib, Xunays Asadiyni urishdi. Otasi uni himoya qilish uchun turganida uni ham urib tashlashdi. Said ularni mushtlashishdan qaytarmoqchi edi, unga quloq solishmadi. Haligi otabola kaltak zo'ridan hushlaridan ketib qolishdi. Shundan so'ng Banu Asad qavmi o'z qabiladoshlari o'chini olish uchun yetib keldi va ikki guruh o'rtasida urush chiqib ketishiga oz qoldi. Said bir amallab vaziyatni o'nglashga muvaffaq bo'ldi[1].

Usmon roziyallohu anhu hodisadan xabar topgach, Said ibn Osdan mavzuni hikmat bilan muolaja qilishni va imkon qadar fitnaning oldini olishni talab qildi. Shundan so'ng xavorijlar har xil gap-so'zlarni tarqata boshlashdi, uydirma va yolg'onlarni aytib, Ko'fa voliysi Said ibn Osga qarshi, Usmonga qarshi, Ko'fa ahliga va uning obro'-e'tiborli kishilariga qarshi fitna qo'ziy boshlashdi. Ko'faliklar ulardan bezor bo'lib, Saiddan ularga jazo berishni talab qildilar. Said ularga, Usmon meni bunday qilishdan qaytargan, agar istasanglar o'zinglar unga xabar beringlar, dedi. Ko'faning sharaflari va solih kishilari Usmonga mazkur fitnachilar haqida maktub yozib, ularning Ko'fada qilayotgan buzg'unchiliklarini aytib, ularni Ko'fadan badarg'a qilishini so'radilar. Shundan so'ng Usmon ibn Affon roziyallohu anhu Said ibn Osga ularni Ko'fadan surgun qilishni buyurdi. Ular o'ndan ortiq kishi edi, Said ularni Usmonning amri bilan Shomga, Muoviya huzuriga yubordi. Usmon Muoviyaga ular haqida xat yozib: "Ko'fa ahli bir necha fitnachi kimsani senga yubordi, sen ularni qo'rqitib qo'y va adablarini ber, qilayotgan ishlari noto'g'ri ekanini tushuntir. Agar eslari kirib, to'g'rilikka qaytishsa, ulardan uzrlarini qabul qil", dedi[2].

Shomga surgun qilinganlar ichida Ashtar Naxaiy, Jundab Azdiy, Sa'sa'a ibn Savhon, Kumayl ibn Ziyod, Umayr ibn Zobi', Ibn Kavvo bor edi. Ularni Muoviya roziyallohu anhu iliq kutib oldi, chiroyli mehmon qildi, Usmonning amri bilan



ularga Iroqda berib turilgan nafaqalarini joriy qildi. O'zi ko'pincha ular bilan birga, bir dasturxon ustida o'tirib ovqatlanardi, ular bilan suhbat qurardi.

Suhbatlaridan birida Muoviya ularga shunday dedi: “Sizlar arablardan bo'lgan oddiy bir qavmsiz, Islom tufayli sharafiga erishdingiz, xalqlar ustidan g'olib bo'ldingiz, ularning martabalari va meroslarini qo'lga kiritdingiz. Eshitishimcha, sizlar Qurayshni yomon ko'rarmishsiz. Quraysh bo'lmaganida sizlar xorlikda davom etgan bo'lardingiz”.

Usmon ibn Affon roziyallohu anhu bilardiki, Muoviya chigal muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega inson bo'lib, o'zining fasohati va balog'ati, hilmi va sabri, zakosi va dahosi bilan fitnachilarga bimalol yuzlana olardi. Shu tufayli qachon bir chigal ish chiqsa, uni hal qilish uchun Muoviya ibn Abu Sufyonga yo'llardi. Darhaqiqat, bu marta ham Muoviya mazkur fitnachi kimsalarni qoniqtirish uchun qo'ldan kelgan hamma ishni qildi. Avvalo ularni izzat-ikrom bilan kutib oldi, chiroyli mehmon qildi, ular bilan aralashib, suhbatlashib, ichlaridagi gaplarini o'rgandi. Aniq xulosaga kelish uchun ular haqida o'ziga yetgan gaplarga cheklanmadi. Chiroyli suhbatlar bilan o'rtalaridagi begonasirashni aritganidan so'ng va ular ko'ngildagi gaplarini bimalol aytadigan muhitni vujudga keltirganidan so'ng, ular bilan gaplashib bildiki, ularni qabilaviy na'ralar harakatga keltirayotgan ekan, hukmronlik va saltanatga bo'lgan muhabbat ularni qo'zg'otayotgan ekan. Demak, ularga ikki tomondan kirib borish lozim, degan xulosaga keldi.

Birinchisi: Islomning arablar izzatga erishishidagi ta'siri.

Ikkinchisi: Qurayshning islomni yoyish va uning asosiy og'irliklarini ko'tarishdagi roli.

Shundan so'ng ular ko'zi oldiga arablarning vaziyati suratini chizib berdi. Ya'ni, ular islom tufayli bir imomga bo'ysunadigan yagona bir ummatga aylanganlarini va anarxiya, qon to'kish va jirkanch qabilaparastlik hayotini tark qilganlarini aytdi. So'ng Muoviya ular bilan suhbatni davom ettirib, shunday dedi:





“Imomlaringiz bugungi kungacha ham sizlarga qalqon bo`lib keldilar, sizlar o`z qalqonlaringizdan voz kechmanglar. Imomlaringiz sizlarning javrlaringizga sabr-toqat ko`rsatib kelishmoqda. Allohga qasamki, yo tiyilasizlar yo esa Alloh boshingizga yomon kunlarni soladigan, so`ng sizlarni sabrsizlikda ayblaydigan kishini ustingizga keltirib qo`yadi”.

Ulardan biri unga shunday javob berdi: “Quraysh haqidagi gaplaringga kelsak, Quraysh johiliyat davrida ham arablarning son jihatidan ko`pi emasdi, kuch-qudratda ustuni ham emasdiki, sen bizni ular bilan qo`rqitsang. Ammo, qalqon haqidagi gapingga kelsak, qalqon agar teshilsa, o`qni o`tkazib yuboradi”.

Muoviya dedi: “Men sizlarni endi bildim va yaxshi tanidim. Sizlarni bu ishga gijgijlagan narsa aqlsizligingiz ekani menga ma`lum bo`ldi. Ey Sa`sa`a, qavm nomidan so`zlayotgan senda aqlni ko`rmayapman. Men senga Islomning ulug`ligidan gapirsam, sen menga johiliyatni eslatyapsan! Men senga rahbarlarning qalqonligini aytib nasihat qilsam, sen qalqon teshilishini aytyapsan! Sizlarni hovliqtirgan va ishlaringizni kuchaytirib, xalifaga qarshi jur`atlantirgan kimsalarni Alloh sharmanda qilsin”[3].

Muoviya ularga ishora va yengil nasihat kor qilmasligini bildi. Ular uchun avvalo Qurayshning voqelikdagi o`rnini kengroq sharhlashga ehtiyoj borligini tuydi va ularga shunday dedi: “Yaxshilab uqib olinglar – men sizlarni gap uqadigan odam deb ko`rmayapman – Quraysh johiliyatda ham, islomda ham faqat Allohning karami bilan aziz bo`ldi, u arablarning ko`p sonli qabilasi emas, kuch-qudratlisi ham emas, lekin ular nasab jihatidan eng ulug`, obro`-e`tibor va muravvat jihatidan eng komil qabiladir. Ular johiliyat paytida qirg`inbarot urushlar ichida ham faqat Allohning hifzi himoyasi bilan omonlikda bo`lganlar. Qurayshga kim biron yomonlik istasa, albatta Alloh uning yuzini yerga qaratib qo`ygan. Keyin Alloh taolo o`zi ikrom qilgan va o`zining diniga ergashgan kishilarni dunyo xorligidan va oxiratdagi yomon oqibatdan qutqarishni istadi, buning uchun eng yaxshi bandasini tanladi, so`ng unga yaxshi as`hoblar tanladi, ularning eng yaxshisi qurayshliklar bo`ldi. So`ng mulkni ular bilan bino qildi va



xalifalikni ularda qildi, bu ish uchun faqat ular yaroqli bo'ladi". Keyin Muoviya ularning qabilalari va yurtlari haqida so'zlab, Qurayshga nisbatan qay o'rinda turishlarini va o'zlarining kim ekanliklarini o'z ko'zlariga ko'rsatib qo'ydi. Ularning johiliyat paytida naqadar xorlikda bo'lishganini, tabiat jihatidan yashab turgan joylari ham giyoh o'smaydigan qaqroq yerlar bo'lganini, siyosiy jihatdan esa forsliklarga qaram bo'lib kelishganini va Alloh ularni islom bilan aziz qilganini va xorlikdan yuksaklikka ko'tarib qo'yganii eslatib qo'ydi. So'ng ular nomidan so'zlagan Sa'sa'a ibn Savhonning shaxsi haqida gapirib, uning butun qavmi qabilasi islomni qabul qilganidan keyin ham risolat chaqirig'ini qabul qilishga ikkilanib yurganini, oxir ilojisizlikdan islomni qabul qilganini eslatib o'tdi va islom uni tubanlikdan yuqoriga ko'targanini aytdi. So'ng Muoviya Sa'sa'aning va sheriklarining rejalarini fosh qildi va ularning fitna istayotganliklarini ochib tashladi. Allohning dinida egri yo'l istashayotganini, ularning bu ishlari va gap-so'zlari johiliyat da'vosiga uyqash ekanini aytdi. So'ng ularni qoldirib, chiqib ketdi.

[1] "Tarixi Tabariy" (5/323).

[2] Avvalgi manba (5/324).

[3] Avvalgi manba (5/324).

Muoviya roziyallohu anhunung fitnachilar bilan so'zlashuvlari

Muoviya roziyallohu anhu keyin ham mazkur fitnachi kimsalar bilan uzoq gaplashib, ularni yo'lga solishga urindi. "Ey qavm, – dedi u ularga, – gaplarimga yaxshilik bilan javob qaytaringlar yoki jim bo'linglar. O'zingiz o'ylang, shu ishlardan o'zingiz, ahli oilangiz va qarindosh-urug'ingizga va umuman musulmonlar jamoasiga biron foyda bormi?! Kelinglar, musulmonlar o'rtasida bo'linishga emas, aksincha, ittifoqlikka sabab bo'ladigan ishlar bilan band bo'laylik". Sa'sa'a o'jarlik bilan yana: "Sen bunga loyiq emassan va Allohga qilayotgan isyoningda biz senga itoat qilmaymiz", dedi. Muoviya dedi: "Men avval-boshdayoq sizlarga Allohdan taqvo qilinglar, Unga va payg'ambariga itoat



qilinglar, barchangiz Uning dinini mahkam tutinglar va bo'linmanglar deb aytmadimmi?”. Ular dedilar: “Yo`q, sen tafriqaga va Payg`ambar sollallohu alayhi va sallam keltirgan narsaning xilofiga buyurding”. U dedi: “Agar shunday qilgan bo'lsam, mana, hozir Allohga tavba qilaman va sizlarni Undan taqvo qilishga chaqiraman, Unga va payg`ambariga itoat qilishga, jamoatni lozim tutishga va bo'lginchilikni yomon ko'rishga, imomlaringizga vafo qilishga, hurmat-ehtirom ko'rsatishga, ularga imkon qadar yaxshilik istashga va yumshoqlik bilan pand-nasihat qilishga buyuraman. Sa'sa'a dedi: “Biz esa seni mansabingdan bo'shashga buyuramiz, zero musulmonlar ichida bu mansabga sendan ko'ra haqliroq kishilar bor”. “Kim ekan u?”, dedi Muoviya. “Otasi sening otangdan ilgari islomga kirgan, o'zi sendan avval islomni tanigan kishilar bor”, dedi. Muoviya dedi: “Qasamki, agarchi boshqalar mendan ko'ra muqaddamroq bo'lsalar ham, mening ham islomda peshqadamligim bor. Binobarin, hozirgi vaqtda bu vazifani ado etishga mendan ko'ra qudratliroq odam yo`q. Umar ibn Xattob ham shu fikrda bo'lgandi. Agar Umar boshqa odamni mendan ko'ra qudratliroq deb ko'rganida, menga bu vazifani aslo bermagan bo'lardi. Zero, Umar hech kimning rioyasini qilmaydigan inson edi! Qolaversa, men amalimdan bo'shashga loyiq biron ish qilmadim. Agar amirulmo`minin Usmon ibn Affon va musulmonlar jamoati shuni munosib ko'rsalar, amirulmo`minin o'z qo'li bilan farmon yozsa, men mansabimni topshiraveraman. Alloh shunday bo'lishini taqdir qilgan bo'lsa, umid qilamanki, bu faqat yaxshilik bo'ladi. Sen esa shaytonning gapiga kirib, shoshqaloqlik qilma. Qasamki, ishlar sizlar istaganingizdek va orzu qilganingizdek bo'lsaydi, ahli islom uchun barqarorlik bo'lmagan bo'lardi. Lekin Alloh taqdir qiladi va boshqaradi, u barcha narsaning egasi. Sizlar yaxshilikka qaytinglar va yaxshi gaplarni aytinglar”.

Ular yana o'z gaplarini ma`qullab, Muoviyaning bu mansabga noloyiqligi haqida gapira boshladilar. Bahs-munozara kuchayib, hatto ulardan biri sakrab turib, Muoviyaning soch-soqoliga yopishishgacha bordi. Shunda Muoviya g`azablanib: “Tort qo`lingni! Bu yer senga Ko`fa emas. Qasamki, agar Shom ahli o'z imomlariga qilayotgan bu behurmatliklaringizni ko'rsalar, sizlarni sog`



qo'ymaydilar va men ularni sizlarni o'ldirishdan to'xtatib qololmayman", dedi. Shundan so'ng turib, ular oldidan chiqib ketdi[1].

Bu Shom amiri Muoviya roziyallohu anhuning ularni yo'lga solish uchun qilgan urinishlarining oxirgisi bo'ldi. U bu borada o'zining bor kuch-harakatini sarfladi, ularni fitnadan qaytarish uchun halimligini, hikmati va ma'rifatini ishga soldi. Biroq, bularning hech biri ish bermaganini ko'rgach, ularning kirdikorlarini amirulmo'minin Usmon ibn Affon roziyallohu anhuga yetkazish va ularning asl niyat-maqсадlaridan uni to'la boxabar qilish lozim, degan qarorga keldi.

Muoviyaning Ko'falik fitnachilar haqida Usmon roziyallohu anhuga maktubi

Shundan so'ng Muoviya roziyallohu anhu Usmon ibn Affon roziyallohu anhuga quyidagi mazmunda maktub yubordi:

"Bismillahir rohmanir rohim. Allohning quli, mo'minlar amiri Usmon ibn Affonga Muoviya ibn Abu Sufyondan. Ammo ba'd... Ey amirulmo'minin, siz mening huzurimga shaytonning izmiga kirgan va shayton ularning tillarida gapiradigan, o'z da'volaricha odamlarga Qur'ondan gapirib, ular qalbiga shubha soladigan bir qavmni yuborgan ekansiz. Hamma odamlar ham ularning g'arazlarini tushunavermaydi. Ular soddalarni chalg'itib, faqat fitna qo'zg'atmoqdalar va tafriqa qilishni istamoqdalar. Ular Islomni yoqtirmaydigan va uni og'ir sanaydigan, dillariga shayton vasvasalari o'nashib qolgan kishilardir. Ular Ko'fa ahlidan juda ko'p odamlarning yo'ldan ozishiga sabab bo'lishdi. Agar Shomda qolishsa, men ularning Shom ahlini ham o'z sehlari va fujurlari bilan yo'ldan ozdirishlaridan xotirjam emasman. Ularni o'zlari chiqqan shaharlariga qaytarib yuboring"[2].

Shundan so'ng Usmon roziyallohu anhu Ko'faga, Said ibn Osga maktub yo'llab, fitnachilarni u yerga qaytardi. Ular qaytib kelgach, u yerda ilgarigidan ham tillari o'tkir bo'lib yurishdi. Said ulardan siqilib, Usmonga xat yozib yubordi. Usmon Saidga javob yozib, ularni Hims amiri Abdurahmon ibn Xolid ibn Valid



huzuriga yuborishni buyurdi. Ular Abdurahmon ibn Xolid ibn Valid huzuriga yetib kelishgach, u ular bilan juda qattiq va ayovsiz ohangda gaplashdi, ularga: “Ey shaytonning malaylari, sizlarga “xush kelibsiz” demayman. Shayton noumid bo`lib, hasrat bilan qaytib ketdi, sizlar esa botil qilmishlaringizdan qaytay demayapsizlar! Abdurahmon agar sizlarning adablaringni berib qo`ymasa va sharmandalaringni chiqarmasa, Alloh uni ziyonkorlardan qilsin! Ey betayin, arabmi ajamligi noma`lum kimsalar, sizlar menga Said va Muoviyaga aytgan gaplaringni hargiz aytolmaysizlar! Men Xolid ibn Validning o`g`liman! Men fitnachilarning dodini bergan va murtadlarning ildizini quritgan kishining o`g`liman! Qasamki, men sizlarni xorlikka giriftor etaman!”. Ular Abdurahmon ibn Xolid ibn Valid huzurida bir oy turishdi. U ularga o`ta qattqlik bilan muomala qildi, Said va Muoviya kabi yumshoqlik qilib o`tirmadi, yayov yursa, birga yayov yurishdi, otliq yursa, yonida otliq yurishdi, u bilan birga g`azotlarga chiqishdi. Mavridi keldi deguncha Abdurahmon ularni xorlar va burunlarini yerga ishqardi, peshvolari Sa`sa`a ibn Savhon bilan uchrashganda unga: “Ey fitnachi! Bilasanmi, kim yaxshilik bilan tuzalmasa, yomonlik bilan tuzaladi, kimni yumshoqlik tuzatmasa, uni qattiqqo`llik tuzatadi!”, derdi. Ularga xitob qilib: “Nega menga Ko`fada Saidga va Shomda Muoviyaga qaytargandek javob qaytarmayapsizlar?! Nega ularga aytgan gaplaringni menga ham aytmayapsizlar?!”, derdi. Abdurahmon ibn Xolid ibn Validning qo`llagan uslubi asqotdi va uning shiddati va qattiqqo`lligi ularning tillarini soqov qildi. Ular unga o`z pushaymonliklarini izhor qilib: “Allohgga tavba qilamiz va istig`for aytamiz. Bizni ozod qil, Alloh seni ozod qilsin, bizga yengillik ber, Alloh senga yengillik bersin”, deyishdi. Abdurahmon ularning boshliqlaridan bo`lgan Ashtar Naxaiyni o`zlarining tavba qilib, tuzalغانlarini va fitnadan voz kechganlarini bildirishi uchun Usmon roziyallohu anhu huzuriga yubordi. Usmon Ashtarga: “Atrofingdagi odamlar bilan istagan joylaringga borib yashayveringlar, men sizlarni afv qildim”, dedi. Ashtar hozircha Jazirada, Abdurahmon huzurida qolishlarini aytdi. Ular u yerda tavba izhor etib, o`zlarini tuzatgandek bo`lib yurishdi. Fitnachilar Ko`fada bir muddat tinchib qolishdi, bu voqea-hodisalar hijriy 33 yilda bo`layotgan edi.



Fitnachilarning boshliqlarini avval Shomga Muoviya huzuriga, keyin Himsga Abdurahmon huzuriga surgun etilishi Ko`fadagi fitnakorlarni ancha sergak torttirdi va ular vaziyat taqozosiga ko`ra vaqtincha jim yurishni ixtiyor qildilar[3].

[1] “Tarixi Tabariy” (5/330).

[2] “Tarixi Tabariy” (5/331).

[3] Xolidiy, “Al-xulafour-roshidun” (134-bet).

Hijriy 33 yili fitnachilarning boshliqlarini avval Shomga – Muoviya huzuriga, keyin Himsga – Abdurahmon huzuriga surgun etilishi Ko`fadagi fitnakorlarni ancha sergak torttirdi va ular vaziyat taqozosiga ko`ra vaqtincha jim yurishni ixtiyor qildilar[1].

Ammo Basra, Misr va boshqa joylardagi fitnachilar fitna harakatlarini davom ettirishdi. Usmon ibn Affon xalifaligining o`n birinchi yili – hijriy 34 yili Abdulloh ibn Saba` o`ta puxta harakat rejasini ishlab chiqdi va o`ziga ergashgan sabaiylar jamoati bilan birga xalifaga va uning voliylariga qarshi qo`zg`olon boshlashga kelishib oldi. Ibn Saba` o`zining Misrda joylashgan makr uyasidan turib Basra, Ko`fa va Madinadagi shayton malaylari bilan aloqa bog`lab, xuruj boshlash tafsilotlari haqida ularga ta`limotlar berdi, o`rtalarida to`xtovsiz o`zaro yozishmalar bo`lib turdi. Ko`fadagi sabaiylarning boshliqlaridan 17 kishi Shomga, undan Jaziraga – Abdurahmon ibn Xolid ibn Valid huzuriga surgun qilinganidan so`ng Ko`fadagi sabaiylarga Yazid ibn Qays boshliq bo`lib qoldi. Hijriy 34 yili Ko`fa es-hushli va obro`-e`tiborli kishilardan deyarli bo`shab qolgandi, chunki ko`pchilik Alloh yo`lidagi jihodga chiqib ketishgan va Ko`fada asosan sabaiylarning fitna to`riga ilingan to`polonchi va ig`vogar kimsalar qolgandi. Sabaiylar ularga o`z ta`sirlarini o`tkazishgan va ularni Usmonning Ko`fadagi voliysi Said ibn Os roziyallohu anhuga qarshi qayrashgandi. Ko`fadagi qo`mondon Qa`qo ibn Amr Tamimiy sabaiylarning Yazid ibn Qays boshchiligidagi birinchi isyon harakatini bostirishga muvaffaq bo`ldi. Yazid Qa`qoning o`ta ogoh, aql-farosatli va shu bilan birga o`ta qattiqqo`lligini bilgani



tufayli unga o'zlarining asl maqsadlari bo'lmish xalifa Usmonga qarshi isyon ko'tarish va uni xalifalikdan ag'darish rejalarini oshkor qilmadi, balki unga o'zining va jamoatining maqsadi faqatgina Ko'fa voliyysi Said ibn Osni mansabidan bo'shatish va o'rniga boshqa voliy talab qilish bo'lgandek qilib ko'rsatdi. Ularning bu talablari qabul qilindi. Shuning uchun Qa'qo Yazidning so'zlarini eshitgach, ularni ozod qildi. U Yazidga: "Agar sening maqsading faqat shu bo'lsa, odamlarni atrofingga yig'ib masjidga o'tirma, uyingga borib o'tir. Xalifadan istaganingni talab qil, Allohning izni bilan talabing qabul etiladi", dedi. Yazid ibn Qays fitna olovini yoqishdan to'xtamadi va xuruj qilish rejasini ortga surib turishga majbur bo'ldi. So'ng sabaiylarning makrlari, tadbir va rejaları ostida to'polonchi va g'avg'ochilar Yazid ibn Qays boshchiligida Ko'fa voliyysi Said ibn Osning Ko'faga kirishiga monelik qildilar, o'shanda Said Madinadan kelayotgan edi[2].

To'polonchi sabaiylar fitna qo'zg'ash va beqarorlik keltirib chiqarish maqsadida xuruj boshlagach, musulmonlarning nufuzli va e'tiborli kishilari xalqqa nasihat qilish uchun masjidga yig'ildilar. Voliyning noibi Amr ibn Hurays minbarga ko'tarilib, musulmonlardan birdamlik va birodarlikni saqlashni talab qildi, ularni ixtilof, tafriqa, fitna va xurujdan qaytardi, fitnachilarga quloq solmaslikka chaqirdi. Qa'qo ibn Amr Tamimiy fitnani kuch bilan bostirishga chaqirib: "Selning yo'lini to'sib bo'ladimi yo daryoni ortiga qaytarish mumkinmi?! Hayhot! Yo'q, Allohga qasamki, bu g'avg'o va fitnani faqat qilichlar bostira oladi!", dedi.

Fitnachilar Said ibn Osni Ko'faga kiritishmagach, u Madinaga qaytib ketdi. U ularga to'qnashmaslikni va fitna olovini alangalatmaslikni hikmatdan deb bildi, aksincha, uni o'chirishga urinish lozim yoki hech bo'lmasa alangasi kuchayishi oldini olish kerak, deb o'yladi. Madinaga qaytib kelgach, Said Usmonga bo'lgan voqeani aytib berdi. Usmon undan: "Ular nima istaydilar, bay'atdan voz kechishdimi, xalifaga qarshi isyon qilishdimi, unga itoat qilmasliklarini e'lon qilishdimi?", deb so'radi. "Yo'q, ular meni o'zlariga voliy bo'lishimni





istamasliklarini va o'rnimga boshqa voliy istashlarini izhor qilishdi", dedi Said. "Kimning voliy bo'lishini istaydilar?", deb so'radi. "Ular Abu Muso Ash'ariyni istashyapti", dedi. Usmon: "Bo'пти, unda biz Abu Musoni ularga voliylikka tayin qildik. Allohga qasamki, biz biron kishi uchun aslo uzr qoldirmaymiz, ularga to istayotgan narsalarining haqiqatini bilmagunimizcha bizdan talab etilganidek sabr qilamiz", dedi. So'ng Usmon roziyallohu anhu Abu Muso Ash'ariyga uni Ko'faga voliy etib tayinlagani haqida maktub yo'lladi [3].

Bu payt Abu Muso Ash'ariy roziyallohu anhu vaziyatni tuzatishga va odamlarni isyondan qaytarishga urinish bilan ovora edi. U odamlarga xitob qilib: "Ey odamlar, muxoliflarga quloq solmanglar, bu isyonga aralashmanglar, jamoatdan ajralmanglar, itoatni lozim tutinglar, shoshqaloqlik qilmanglar, sabr qilinglar, tez orada xalifa sizlarga yangi amir yuborsa kerak", dedi. Ular: "Ungacha siz bizga imom bo'lib namoz o'qib berib turing", deyishdi. U: "Yo'q, faqat bir shart bilan rozi bo'laman, Usmon ibn Affonga itoat qilishga so'z berasizlar", dedi. Ular Usmonga itoat qilishga so'z beramiz, deyishdi, biroq bu so'zlariga o'zlari ham ishonmasdilar, haqiqiy maqsadlarini boshqalardan yashirayotgandilar. Abu Muso to xalifa Usmondan uni Ko'faga voliy etib tayinlagani haqidagi farmon kelguniga qadar imomlik qilib turdi. Usmon isyon ko'targan Ko'fa ahliga shunday maktub yozib yuborgandi: "Ammo ba'd, men sizlarga o'zingiz tanlagan kishini voliy qildim va Saidni voliylikdan bo'shatdim. Allohga qasamki, men o'z obro'yimni sizlarning oyoqlaringiz ostiga to'shayman, sizlarga sabr qilaman va imkonim boricha holatni isloh qilishga urinaman. Allohga osiylik bo'lmaydigan ishlardan istagan narsalaringni mendan so'ranglar, so'raganingizni beraman, Allohga osiylik bo'lmaydigan ishlardan nimani yoqtirmasangiz, uni sizlardan olib tashlayman, sizlarning istaklaringizni bajo keltiraman, toki sizlarda menga qarshi biron hujjat qolmasin". Usmon ibn Affon roziyallohu anhu mana shu ma'nodagi maktubni boshqa shaharlarga ham yubordi[4].



Amirulmo`minin Usmondan Alloh rozi bo`lsin, u imkoni boricha islohga harakat qildi, muxoliflarga bag`rikenglik qildi, isyonkor va fitnakor sabaiylar esa unga mislsiz darajada zulm qildilar va ixtilofda haddan oshdilar.

[1] Xolidiy, “Al-xulafour-roshidun” (134-bet).

[2] “Tarixi Tabariy” (5/338).

[3] “Tarixi Tabariy” (5/339).

[4] Avvalgi manba (5/343).